

MAZMUNI

Mamayoqubova Nilufar

Meligaliyeva Yulduz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika yo'nalishi 8-p-22 guruh 3-bosqich talabalari

[*mamayoqubovanilufar004@gmail.com*](mailto:mamayoqubovanilufar004@gmail.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchining o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish vazifalarini hal qilishga qaratilgan, shuningdek, pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari bilan amalga oshiriladigan ijtimoiy kasbiy faolligi mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, tadqiqot metodlari, maktabshunoslik, siyosatshunoslik demografiya, didaktika, ijtimoiylashuv, jarayon, faoliyat, ta'lim, tarbiya, kasb, mahorat, mazmun, xususiyat.

Anotation: This article describes the content of the social professional activity of the teacher, which is aimed at solving the tasks of providing education and upbringing to students, as well as the means of pedagogical influence.

Key words: pedagogy, research methods, school science, political science, demography, didactics, socialization, process, activity, education, training, profession, skill, content, characteristic.

Kirish: Ma'lumki, pedagogika atamasi qadimiy bo'lib, „bola yetaklovchi“ degan ma'noni bildiruvchi grekcha „paydogogos“ so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan, harbiy mahoratni o'rgatgan tarbiyachini „pedagog“ deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Shaxsni tarbiyalash

pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi.

Asosiy qism: O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxs tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga sabab bo'ladi. XX asr boshlaridan qiyosiy pedagogika fani pedagogikaning alohida tarmog'i sifatida dunyoga keldi. Unda jahondagi turli xalqlarning pedagogik qarashlari va ta'lim-tarbiya tizimi qiyosiy-genetik yo'sinda bir-biriga solishtirilgan holda o'rganildi. Pedagogikaning bu tarmog'i ta'lim-tarbiya borasidagi eng ilg'or usul va yondashuvlarni solishtirish, maqsadga muvofiqlarini muayyan milliy pedagogik fan va amaliyotga tatbiq qilish imkonini beradi. Mamlakatimizda hozircha qiyosiy pedagogika alohida fan sifatida shakllanmagan bo'lsada, bu borada jiddiy izlanishlar amalga oshirilgan. Odamzodning hayotiy va aqliy tajribasi ortib, turmush kechirish tarzi xilma-xillashib, mehnat taqsimoti yuzaga kelib turli fanlar paydo bo'la boshlashi bilan pedagogika ham inson faoliyatining alohida sohasiga aylandi. Ta'lim va tarbiyaga doir qarashlar tizimi shakllandi. Lekin bular darhol pedagogik nazariy tizimlar sifatida emas, balki milliy fikr tarbiyaga daxldor qarashlar, aqidalar, hikmatlar tarzida namoyon bo'ldi.

Yozuv paydo bo'lishi bilan pedagogik qarashlar yozuvga ko'chiriladigan bo'ldi. Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash insonparvarlik, eng oliy insoniy qadriyatlar, mehrlilik va do'stlik, mehribonlik munosabatlarda mas'uliyatlilik, huquqiy madaniyatni yuksaltirish; mehnatga bo'lgan ehtiyoj, mehnatsevarlikka hayotning eng oliy qadriyati-moddiy farovonlik, ijodkorlik manbai sifatida qarash, xulq va muloqot madaniyati, o'z qadrini bilish, real hayotiy vaziyatlarda o'zlashtirilgan axloqiy tushunchalarga muvofiq harakat qilish, ekstremal vaziyatlarda kurashish va omon qolish, irodasining kuchli va zaif jihatlarini tanqidiy tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantirish; milliy urf-odatlar,

xalqning an'ana va qadriyatlariga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish; o'zi haqidagi fikrlarni eshitish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash shaxsning intellektual faoliyatiga qo'yiladigan mantiqiy talab va me'yorlar mazmuni sifatida tushuniladi. Pedagogik jarayonda pedagogik faoliyat turlari o'quv va tarbiyaviy ishlardir.

Tarbiyaviy ish - bu insonlarning komil inson bo'lib yetishishi, har xil muammolarni hal etish uchun o'quv muhitini tashkil etish uchun, shaxslarni turli xil faoliyat turlarini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyat. Bola tarbiyasida pedagogikaning o'rni beqiyos. Tarbiyaviy ishda bolaning ruhiyatidan kelib chiqib ish ko'rish zarur. Bunda bizga psixologiya fani juda katta yordam beradi. Kattalarga bo'lgan hurmat, insoniy fazilatlarni, har xil tarbiyaviy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda katta yoshli odamlar ham pedagogika fanini qiziqib o'rganishmoqda. Nega deganda ular o'zlarini xato kamchiliklarini ko'rgan holda ya'ni: xudbin insonga aylanishi, tarbiyani buzuvchilik, qo'pol so'zlar harakatlar tufayli lekin ular bir vaqtning o'zida ham psixologiya fani bilan ham shug'ullansalar shunda ta'siri sezilarli bo'lar edi. Pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarimiz albatta o'zlarining ta'lim tarbiyasi, fe'l atvori yaxshi bo'lishi va oliy ma'lumotli pedagog bo'lishi kerak. Pedagogik faoliyat faqat "ta'lim doirasi"da olib borilmaydi. Demochimanki, faqat maktab, kollej, universitet emas. Masalan hunar o'rganadigan odamlar qanchadan qancha. O'rganilayotgan faoliyatni chuqur o'rganish uchun o'sha sohani yaxshi biladigan o'rgata olish qobiliyati, yetqizib berish kabi salohiyatlarga ega bo'lishlari zarur. Bu ham pedagogik jihatlarga borib taqaladi. Ta'lim sohasini asosiy maqsadi - ta'lim samaradorligiga erishish, qo'yilgan maqsadga erishish. Tarbiyaviy jarayonda maqsadga erishishga intilinmaydi, chunki tarbiyaviy jarayonda tashkiliy ishlar ma'lum bir vaqt ichida bola psixikasida, tarbiyasida shakllanadigan jarayondir. Bunda faqat aniq maqsadga yo'naltirilgan vazifalarni izchil olib boriladi. Kadrlarni qayta tayyorlash malakasini oshirish borasida qator chora tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasini qarori 16.02.2006 yildagi 5-son : pedgoglarni malakasini oshirish o'quv-metodikalardan , zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishi ta'lim jarayonida oliy malakali kadrlarni ko'paytirish bo'yicha so'z boradi. Bunda davlat qo'ygan talablarga ham rioya qilgan holda dars jarayonlarini olib borishadi. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari o'quv rejalari va dasturlarini, shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini, ta'lim sifatini nazorat qilish va baholash tartibini, ular faoliyatini attestatsiyadan o'tkazish tartib-qoidalarini tartibga soladigan boshqa hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablarining bajarilishi idoraviy mansubligi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha turdagi ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablariga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariidan, ta'lim muassasalarining ehtiyojlaridan, yangi pedagogik texnologiyalarni va o'qitishning noan'anaviy shakllarini rivojlantirishdan, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi jahon yutuqlari va an'alaridan kelib chiqib Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish davomida tuzatishlar kiritilishi va to'ldirilishi mumkin¹. O'zini sohalaridan kelib chiqib bilimlarini mustahkamlash yanada chuqurlashtirish maqsadida qilinadigan jaroyondir. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi. Pedagogik faoliyatning eng muhim xususiyatlaridan biri uning birgalikdagi xususiyatidir. Bu, albatta, o'qituvchini va u o'rgatgan, tarbiyalaydigan, rivojlantiradigan kishini o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyat o'qituvchining o'zini o'zi anglashini va uning talabani o'zgartirishdagi maqsadli ishtirokini (uning tayyorgarlik, tarbiya, rivojlanish, ta'lim darajasi) birlashtiradi.

1. Qoraboeva 3., Abdusamatova N. Ijtimoiy pedagogika (atamalar izohli lug'ati). -Namangan, 2017, 12-bet.
2. Mudrik, A. V. Sotsialnaya pedagogika: ucheb. dlya stud. ped. vuzov / A. V. Mudrik / pod red. V. A. Slastenina. 3-ye izd., ispr. i dop. M.: Izd. sentr Akademiya, 2002.200 s.
3. Xodjaev B.Q., Juraev B.T. Pedagogik faoliyatga kirish [Matn]: monografiya / B.Q. Xodjaev, B.T. Juraev. - Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020. -148b.
4. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika: darslik/ N.Egamberdieva. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2009. - 232 b.
5. Galaguzova M. A. i dr. Sotsialnaya pedagogika. - 2016..
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 30 sentyabrda "O,,qituvchi va murabbiylar kuni" tantanali marosimdagi nutqi